

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17577010>

QURILISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH TAJRIBASI

Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi

Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchisi,

Email: mamajonovanodira448@gmail.com, Tel: (97) 162 33 62

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonada boshqaruv tizimida innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini tashkil etishning asosiy tamoyillari va usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda korxonada faoliyatida ishlab chiqarish jarayonlari hamda innovatsion jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan “parallel tashkiliy”, “matritsaviy” va “integral” boshqaruv modellarining mazmuni va qo‘llanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Maqola natijalari innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, korxonalarda innovatsion strategiyalarni samarali joriy etish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, innovatsion jarayon, kumulyativ, texnologik siljish, bozorni jalb qilish, integral, parallel tashkiliy, matritsaviy, loyihaviy tizimlashtirish, innovatsion loyiha, komplekslilik, tizimlilik, vaziyatli yondashuv tamoyili.

KIRISH.

Qurilish korxonalarida boshqaruvida innovatsiyalardan foydalanish amaliyotining tashkil etilishi boshqaruv jarayonlarini yangicha, takomillashtirilgan usullar asosida shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Natijada, korxonalar boshqaruvidagi innovatsion faoliyatdan foydalanish amaliyoti fanda “innovatsion boshqaruv” sifatida talqin etila boshlandi. Mamlakatimiz korxonalarida boshqaruvida innovatsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy adabiyotlarda shakllangan boshqaruv usullari hamda ularning amal qilish tamoyillarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot asosida milliy amaliyotda qo‘llanilayotgan boshqaruv usullarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masala sanaladi.

Korxonada boshqaruvida innovatsiyalardan foydalanish amaliyoti menedjment nazariyalarida shakllangan an‘anaviy ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va ularni boshqarishdan sezilarli darajada murakkabligi bilan ajralib turadi. Amaliyotchilar fikricha, korxonada yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni boshlash yoki butunlay yangi biznes yo‘nalishini yo‘lga qo‘yish holatlarida (ya‘ni mazkur ishlab chiqarish yoki faoliyat turi bilan ilgari shug‘ullanilmagan taqdirda) boshqaruv amaliyotida ma‘lum darajada innovatsion jarayonlarga duch kelinadi va ularni tartibga solish zaruriyati yuzaga keladi. Bu esa korxonada boshqaruvida innovatsiyalardan

foydalanish amaliyoti tobora rivojlanib borayotganini, natijada boshqaruv tizimi takomillashib, unda innovatsion boshqaruv shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlarining muntazamligi va ularning takrorlanib turishi mazkur jarayonlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etayotgan xodimlarning amaliy ko'nikmalari, bilim va malakalarining uzluksiz rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bu holat texnologik jarayonlarda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar va kamchiliklar sonining kamayishiga, ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarining ortishiga xizmat qiladi. Natijada, korxonada boshqaruvida ixtisoslashuv jarayonlari jadallashib, innovatsion boshqaruv tizimining institutsional asoslari mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI.

Iqtisodchi olim Y.A. Shumpeter tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion boshqaruvning rivojlanishi natijasida innovatsion jarayonlar jadallashadi degan fikr ilgari surilgan. Olimning ta'kidlashicha, bunda innovatsiyalar diffuziyasi yuzaga keladi, ya'ni ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish kuchayishi natijasida dastlabki innovatorlardan so'ng ularga taqlid qiluvchilar va raqobatchilar ham innovatsiyalar yaratishga qiziqish bildiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida innovatsion boshqaruvga ega bo'lgan korxonalar sonining kumulyativ ko'payishiga olib keladi [3, –C.711].

Shuningdek, V.P. Barancheev, N.P. Maslennikova va V.M. Mishinlar o'zlarining “Innovatsiyalarni boshqarish” nomli darsligida korxonalar innovatsion boshqaruvining “integral” modelini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, mazkur modelda innovatsion boshqaruv — korxonalarda innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish, innovatsion mahsulot prototiplarini yaratish, ishlab chiqarish, savdo va boshqa faoliyat yo'nalishlarini bir vaqtning o'zida parallel tarzda boshqarishni taqozo etuvchi boshqaruv jarayoni sifatida shakllangan. Mualliflar ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar [9, –C.74].

Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalar innovatsion boshqaruvini fan, texnologiya va bozor munosabatlarining uzviy aloqadorligida o'rganishga qaratilgan yondashuvlar ustuvor o'rin tutadi. Jumladan, R. Rotuell, S. Frimen, A. Xorsli, A. Djervis, D. Taunsend, D.S. Moveri hamda N. Rozenberglarning ilmiy tadqiqotlarida korxonalar innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda marketing, bozor va texnik omillar ta'siri chuqur tahlil etilgan [1, –C.23].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, texnologik siljish, bozorni jalb qilish, integral, parallel tashkiliy modellar, matritsaviy hamda loyihaviy tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan. Xususan, korxonada boshqaruvida ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilib, ularning umumiy tasnifi taqdim etilgan. Nazariy ma'lumotlar umumiylikdan xususiylikka qarab tizimlashtirilgan. Tahlillar natijalariga ko'ra, korxonada innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini boshqarishning murakkabligi mazkur jarayonlarga ishlab chiqarish jarayonlarini an'anaviy (muntazam, takrorlanib turuvchi) boshqarish amaliyotiga

nisbatan tashqi va ichki omillarning ta'siri yuqoriligi bilan tavsiflanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Korxonada boshqaruvida ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlarining qiyosiy tahlili [10, -C.63]

Jarayon tavsifi (xarakteristikasi)	Innovatsion jarayon	Muntazam (takrorlanuvchi) ishlab chiqarish jarayoni
Pirovard maqsad	Jamiyat a'zolarining yangi turdagi ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish	Jamiyat a'zolarining joriy ehtiyojlarini qondirish
Maqsadga erishish yo'llari	Ehtiyojlarning cheksizligi va noaniqlilik	Qondirilishi darajasi aniq bo'lgan kam sonli va maqbul ehtiyojlar
Maqsadga erishishdagi risklilik darajasi	Yuqori	Past
Jarayon turi	O'z o'rni va vaqti bo'yicha diskret hisoblanadi	Uzluksiz
Boshqarish, rejalashtirish imkoniyatlari	Past	Yuqori
Rejalar	Uzoq muddatli, tegishli o'zgartirishlar kiritish imkoniyati mavjud	Qisqa muddatli, qat'iy ko'rsatma va vazifalar belgilangan
Jarayon sodir bo'ladigan tizimning rivojlanishi	Tizim rivojlanishning yangi bosqichiga o'tadi	Rivojlanishning joriy bosqichida qoladi yoki innovatsion rivojlanish bo'lmaganligi sababli o'sish sur'atlari pasayadi
Jarayon ishtirokchilari manfaatlarining o'zaro aloqadorligi	O'zaro mos keladi	Manfaatlar tizimiga asoslanadi
Majburiyatlar taqsimoti	Qayta taqsimlanadi	Barqaror

TAHLIL VA NATIJALAR.

Amalga oshirilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada boshqaruvi tizimida innovatsion jarayonlar o'zining hayotiylik sikliga ega bo'lib, yaratilayotgan innovatsiyalar faqat ma'lum davr oralig'ida yuqori iqtisodiy samaradorlik va daromad keltirishi mumkin. Shu boisdan, innovatsion jarayonlarning hayotiylik siklini tizimli ravishda tahlil qilish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion jarayonlarning hayotiylik siklini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin [10, -C.67]:


- Innovatsiyani shakllantirishga bo'lgan talabning vujudga kelishi — ya'ni, yangilikdan foydalanish zaruriyatining paydo bo'lishi, g'oya muallifidan foydalanish huquqini olish yoki innovatsiyani mustaqil ishlab chiqish jarayoni;
- Innovatsiyani ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish — yangi mahsulot, texnologiya yoki boshqaruv mexanizmini amaliy faoliyatga joriy qilish bosqichi;
- Innovatsiya diffuziyasi — yaratilgan yangilikning boshqa tarmoqlar, sohalar va raqobatchi korxonalar o'rtasida tarqalish jarayoni;



1-rasm. Qurilish korxonalarining innovatsion boshqaruv jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar [4, -C.46; 2, -C. 39]

- Innovatsiyadan to'liq foydalanish — innovatsion yechimlarning muntazamlashuvi, barqarorlashuvi va an'anaviy ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismiga aylanish bosqichi.


Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish amaliyotini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar sonining ortib borishi natijasida, mazkur jarayonni tashkil etish bo'yicha yondashuvlar sezilarli darajada takomillashdi. Ilk ilmiy qarashlarda korxonalarda innovatsion boshqaruvni tashkil etish “texnologik siljish” modeliga asoslangan bo'lib, ushbu model XX asrning 1950–1960-yillaridan 1970-yillargacha bo'lgan davrda amaliyotda keng qo'llanilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Qurilish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning “Texnologik siljish (Technology push)” modeli [1, -C.26]

XX asrning 70-yillariga kelib korxonalar faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish va ilmiy-texnik taraqqiyotning izchil rivojlanish tendensiyalari yaqqol namoyon bo'la boshladi. Ushbu davrda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish hamda bozor ehtiyojlariga tezkor javob berish zarurati korxonalarda boshqaruvning yangi yondashuvlarini shakllantirishga turtki bo'ldi.


Natijada iqtisodiy adabiyotlarda 1970–1980-yillar mobaynida korxonalar innovatsion boshqaruvini tashkil etishning “Bozorni jalb qilish (Market pull)” modeli konseptual asos sifatida shakllandi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Qurilish korxonalarini innovatsion boshqaruvini tashkil etishning “Bozorni jalb qilish (Market pull)” modeli[1, -C.29]

“Bozorni jalb qilish” (“Market pull”) modeli innovatsion jarayonlarda funksional jihatdan alohida ta’sir doirasiga ega bo’lgan omillarning o’zaro ta’sir mexanizmini mantiqiy ketma-ketlik asosida ifodalovchi tizim sifatida tavsiflanadi. Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, u innovatsiyalar rivojlanishining chiziqli tavsifini inkor etadi va korxonaning innovatsion faoliyatini bozor ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan yondashuv bilan uyg’unlashtiradi. Bunda innovatsion faoliyat tarkibi hamda texnologik imkoniyatlardan kelib chiqib, yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat beriladi [1, -C.34; 6, -C.3].


Shu nuqtada ta’kidlash joizki, innovatsion boshqaruvning “integral” modeli bugungi kunda jahon avtomobil sanoatida keng tan olingan “Nissan” kompaniyasi amaliyotida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish vositasi sifatida qo’llanilgan. Ushbu modelning qo’llanilishi korporativ boshqaruv tizimida integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklarini namoyon etgan.



4-rasm. Qurilish korxonalarining innovatsion boshqaruvini “Integral” modeli [9, -C.47, 8, -C. 229]

Taraqqiy etgan mamlakatlarda yirik ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion rivojlanish yo‘liga bosqichma-bosqich o‘tishi ularning jahon bozoridagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning sifat darajasi hamda raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshdi. Korxonalar boshqaruvida innovatsion jarayonlarning jadallashuvi innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligini yanada oshirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Iqtisodchi olim F. Kotler fikricha, innovatsion mahsulotni ishlab chiqarish avvalo, korxonaning ilmiy tadqiqot, texnik, ishlab chiqarish, marketing va moliya bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirdagina samarali natijaga erishish imkonini beradi.




5-rasm. Korxonada innovatsion boshqaruvining “Parallel tashkiliy” modeli [9, - C.47, 8, -C. 229]

Jahon amaliyotida Yaponiya qurilish korxonalari innovatsion boshqaruvning yuqori samaradorlikka erishilayotgani bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu mamlakatda mahsulotga kiritilayotgan innovatsion g‘oya avvalo marketing nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinadi hamda uni rivojlantirish jarayonida korxonaning har bir bo‘limi o‘ziga xos funksional vazifani bajaradi. Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalar innovatsion boshqaruvining mazkur turi “parallel tashkiliy” model sifatida tavsiflanadi [9, -C.47, 8, -C.229] (5-rasmga qarang).

O‘tkazilgan tahlillar korxonada innovatsion boshqaruv jarayoni firmada yangi mahsulot turini ishlab chiqish, innovatsion ishlanmalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan boshqarilishini anglatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv tizimi ma’naviy jihatdan eskirgan mahsulotlar, xizmatlar hamda ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini modernizatsiya qilishni ham qamrab oladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishni tashkil etishning quyidagi asosiy tamoyillari ajratib ko‘rsatiladi: [10, -C.98] funkcionallilik, tizimlilik, marketing va talabga yo‘naltirilganlik, qayta ishlab chiqarish, me‘yoriylik (normativlik), komplekslik, integratsionlik, dinamiklik, jarayon yondashuvi, miqdoriy tamoyillar, ma‘muriy tamoyil, xulq-atvor tamoyili hamda vaziyatli yondashuv tamoyili.



6-rasm. Korxonalar innovatsion boshqaruvinı tashkil etishning “Matritsaviy” usuli
[9, -C.87]

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda innovatsion boshqaruvinı tashkil etishda turli bo‘limlar, mutaxassislar va xizmatlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatidan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Amaliyotda korxonalar innovatsion boshqaruvinı shakllantirishda, odatda, matritsaviy va loyihaviy tizimlashtirish usullari keng qo‘llaniladi. Xususan, innovatsion boshqaruving matritsaviy usuli ikki va undan ortiq yil davom etuvchi innovatsion jarayonlarnı tashkil etish hamda ularni amaliyotga joriy etish bosqichlarida yuqori natija beradi. Mazkur turdagi boshqaruv tizimida innovatsion jarayonlar chiziqli shaklda, majburiyatlarning vertikal taqsimlanishiga asoslangan holda tashkil etiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuvni samarali qo‘llash uchun korxonalar yetarli darajada ilmiy-texnik salohiyatga ega bo‘lishi zarur (6-rasmga qarang).

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, qurilish korxonalarini innovatsion faoliyatini boshqaruv amaliyotini tashkil etishda matritsaviy usul keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv, asosan, yirik ishlab chiqarish korxonalarini, mamlakat miqyosida strategik ahamiyat kasb etuvchi tarmoqlarning yetakchi subyektlari hamda transmilliy kompaniyalar boshqaruvi amaliyotida keng tarqalgan. Matritsaviy boshqaruv usulining afzalliklaridan biri shundaki, har bir amalga oshirilayotgan loyiha uchun individual javobgarlik belgilanishi natijasida korxonaning innovatsion rivojlanish barqarorligi kafolatlanadi.

Mazkur usulning ustun jihatlari quyidagilardan iborat: [9, –C.79]

– korxonada innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida yangi ijodiy jamoalarning shakllanishi va ularning funksional jihatdan o‘zaro farqlanishi natijasida innovatsion g‘oyalarda takrorlanish holatlarining oldi olinadi;

– korxonada tarkibida innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ixtisoslashgan bo‘limlar va ishchi guruhlarining mavjudligi innovatsion jarayonlarni tizimli yuritish imkonini yaratadi;

– innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda hamda tegishli ishchi guruhlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi natijasida tashkiliy va texnologik yangiliklarning joriy etilishi tezlashadi;


– ishlab chiqilayotgan innovatsion ishlanmalar korxonaning mavjud ilmiy-texnik salohiyatiga tayanadi, bu esa ularni ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etish muddatini qisqartiradi.

Biroq, mazkur usulning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham mavjud. Xususan: [9, –C.68]

– innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning qisqa muddatlarda amalga oshirilishi sababli ayrim texnologik yoki tashkiliy nuqsonlar e‘tibordan chetda qolishi mumkin;

– innovatsion loyiha menejerlari korxonada innovatsion jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish vakolatiga ega bo‘lmaganligi tufayli, ularni ishlab chiqarish bosqichiga tatbiq etishda ma‘lum tashkiliy to‘siqlar yuzaga keladi;

– innovatsiyalarni joriy etish jarayonida mutaxassislar va resurslarni taqsimlash masalasida ziddiyatli vaziyatlarning vujudga kelish ehtimoli yuqori.



7-rasm. Korxonada innovatsion boshqaruvinı tashkil etishning “Loyihaviy tizimlashtirish” usuli [9, -C.48]

Korxonalarda yirik innovatsion loyihalarni amalga oshirishda esa loyihaviy tizimlashtirish usulidan keng foydalaniladi. Bu yondashuvda innovatsion loyiha rahbari tomonidan maxsus ishchi guruh shakllantiriladi va u innovatsion mahsulotni

ishlab chiqishdan tortib uni amaliyotga joriy etishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni to‘liq amalga oshiradi. Amalga oshirilgan loyiha tegishli sinovlardan o‘tkazilib, belgilangan natijalarga erishilgach, korxonaning ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etiladi (7-rasmga qarang).


Amaliyotda bunday turdagi innovatsion boshqaruv tizimi transmilliy kompaniyalar tomonidan keng qo‘llanadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi texnoparklarda ham mazkur usul asosida innovatsion boshqaruv amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, erishilgan natijalar kichik va o‘rta biznes subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida tijoratlashtiriladi.

Tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishda loyihaviy tizimlashtirish usuli bir qator afzalliklarga ega hisoblanadi [9, –C.45]. Jumladan:

- korxonada amalga oshirilayotgan innovatsion loyiha bevosita loyiha rahbari tomonidan boshqariladi hamda innovatsion ishchi guruh a‘zolari aynan bir loyiha doirasida ixtisoslashadi;

- innovatsion loyihani ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, vaqtni tejash hamda loyiha natijalaridan ishchi guruh a‘zolarining manfaatdorlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Shu bilan birga, korxonalarda innovatsion boshqaruvni loyihaviy tizimlashtirish usuli asosida tashkil etishning ayrim cheklavlari ham mavjud. Xususan, innovatsion ishlanmalarning takrorlanishi, ishchi guruhlarini rivojlantirish va qayta shakllantirish imkoniyatlarining cheklanganligi, shuningdek, tizimning moslashuvchanlik darajasi pastligi ushbu usulning nisbiy kamchiliklari sifatida e‘tirof etiladi.



8-rasm. Innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish sxemasi [4, -C.28; 1, -C. 97; 10, -C. 58; 9, -C. 23]

Fikrimizcha, mamlakatimiz amaliyotida qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruvni tashkil etishda, avvalo, korxonaning ilmiy-texnik salohiyatidan kelib chiqqan holda o‘rta va uzoq muddatli innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bunda innovatsion boshqaruvni shakllantirishning turli usullarini tadqiq

etish asosida korxonalar faoliyati uchun eng maqbul modelni tanlash va uni amaliyotga joriy etish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda, marketing faoliyatini rivojlantirish orqali bozordagi talabni chuqur o'rganish, innovatsion tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni hamda ularning turlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ishlanmalarni yaratish jarayonida mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatidan keng foydalanishga qaratilgan hamkorlik shartnomalarini tuzish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtiradi hamda innovatsion faoliyatni tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishning milliy tizimini shakllantirish zarur (8-rasmga qarang). Mazkur tizim doirasida ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari bilan qurilish korxonalarini o'rtasida tuziladigan innovatsion shartnomalar asosida yangi ishlanmalar sinovdan o'tkaziladi. Sinov natijalariga ko'ra ijobiy baholangan ishlanmalar milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo'yicha, xususan, innovatsion yechimlarga ehtiyoji yuqori bo'lgan qurilish korxonalariga tijorat asosida joriy etiladi.

XULOSA

Mamlakatimizda qurilish korxonalarini faoliyatida innovatsion loyihalardan foydalanish jarayoni bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, korxonalarda innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy hamda institutsional shart-sharoitlarni yaratish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Natijada, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz qurilish korxonalarining innovatsion faoliyatining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гусаков, Б.И. Инновационный менеджмент / Б.И. Гусаков. – М.: Инфра-М, 2004.– 230 с.
2. Медынский, П.А. Инновационный менеджмент. Учебник для вузов/ П.А. Медынский.- М.: «ИнфраМ», 2005. – 294 с.
3. Оголева, Л.Н. Инновационный менеджмент. Учеб. пособие /Л.Н. Оголева. – М.: Инфра-М, 2007.– 237с.
4. Основы инновационного менеджмента /Под ред. д-ра экон. наук, проф. П.Н.Завлина, д-ра экон. наук, проф. А.К.Казанцева, д-ра экон.наук, проф. Л.Э.Миндели. – М.: Экономика, 2000. - 467 с.
5. Основы инновационного менеджмента. Теория и практика: Учеб. пособие / Под ред. П.Н.Завлина и др. – М.: ОАО «НПО «Изд-во «Экономика», 2000. – 475 с.
6. Umarov, I. Y. (2021). Use Of Innovations And Modern Methods In The Logistics Network. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.

7. Умаров, И. Ю., & Хусанова, З. Р. (2019). Применение инновационной деятельности в пищевой промышленности-как фактор повышения уровня жизни населения. In Материалы VII Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы социально-трудовых отношений», посвященной (pp. 367-369).
8. Умаров, И. (2022). Озиқ-овқат саноати корхоналари бошқарувини ташкилий-иқтисодий механизмини баҳолаш услубиёти. *Economics and Innovative Technologies*, 10(3), 229-238.
9. Управление инновациями : учебник для бакалавров / В. П. Баранчев, Н. П. Масленникова, В. М. Мишин. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2015. – 711 с.
10. Фатхутдинов Р. А. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов. 6-е изд. – СПб.: Питер, 2011. – 448 с.